

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14559764>

ABDURAUUF FITRAT ILMIY MEROSI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Kengasheva Bonu Maksimovna

Jizzax Davlat pedagogika Universiteti

O‘zbek tili va adabiyot fakulteti 2-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdurauf Fitratning jadidchilik faoliyati, uning asarlarida o‘sha davr va zamon haqiqatlari va nuqsonlarini ochib berish haqida, hamda yoshlarning ma‘rifatli bo‘lishiga qaratilgan harakatlar, yangi alifbo haqida fikrlar tarixi batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Jadidchilik, ma‘rifatparvarlik, “Munozara” asari; alifbo, imlo masalasi, uyg‘onish, “Jamiyati hayriya”, yosh buxoroliklar, Samarqanddagi faoliyati, “Chig‘atoy gurungi”, 1938 yil 4 oktabr.

Annotation: This article describes in detail the history of Abdurauf Fitrat’s revolutionary activity, the revelation of the truths and defects of that time and era in his works, the actions aimed at the enlightenment of young people, and the history of thoughts about the new alphabet.

Key words: Jadidchilik, enlightenment, the work "Discussion"; alphabet, spelling problem, revival, "Jamiyati Hayriya", young Bukharans, activity in Samarkand, "Chigatoy Gurungi", October 4, 1938.

Аннотация: В данной статье подробно описана история революционной деятельности Абдурауфа Фитрата, раскрытие истин и недостатков того времени и эпохи в его произведениях, действия, направленные на просвещение молодежи, а также история мыслей о новом алфавите.

Ключевые слова: Джадидчилик, просветительство, произведение «Дискуссия»; алфавит, проблема правописания, возрождение, «Джамияти Хайрия», молодые бухарцы, деятельность в Самарканде, «Чигатой Гурунги», 4 октября 1938 г.

Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim: "Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq".

Shavkat Mirziyoyev

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Jadidchilik (arabcha: *jadid* — yangi) — XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakatdir. Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda vujudga keldi. XIX asrning 90-yillaridan O'rta Osiyoda tarqaldi. Jadidchilik avvaliga madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan.

Jadidlar harakati Turkiston o'lkasida tasodifan shakllanib qolgan harakat bo'lmay, balki chuqur asoslarga ega, tarixiy ildizlardan oziqlangan holda vujudga keldi, shakllandi va kuchli ijtimoiy, siyosiy va amaliy mohiyatga ega bo'lgan harakatga aylandi. Bu harakat bir tomondan islom dinining asoslariga, uning ma'rifatparvarlik g'oyalariga, ikkinchi tomondan ilg'or ilm-fan yutuqlariga tayanishni, milliy qadriyat va o'zlikni saqlab qolgan holda zamon kishisini tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilib olgan edi. Bu harakatni yuzaga keltirgan yana bir omil Chor hukumati amaldorlarining Rossiyadagi musulmonlarga bepisandlik qilishi va musulmon aholini oyoq uchida ko'rsatishi va buning natijasida mahalliy musulmon qatlamida paydo bo'lgan xo'rlik hissi edi. Har bir hududda jadidlarning rahbarlari bor edi. Ana shulardan biri Buxoroda – Fayzulla Xo'jayev va Abdurauf Fitrat edi.¹

¹ B.Hasanov , N Karimov - Jadid ma'rifatparvarlik harakatining g'oyaviy asoslari "Toshkent islom universiteti" nashriyot- matbaa birlashmasi , Toshkent 2016 , 7-bet

Abdurauf Fitratni o'quvchiga alohida tanishtirishga xojat yo'q. Buxoro jadidchiligining ko'zga ko'ringan vakili. Jamoat arbobi, olim, demokrat va yozuvchi Sharq milliy-taraqqiyparvarlik harakatidagi yorqin siymosi O'zbekiston va xorijda uning ijodi va tarjimai holini batafsil o'rgangan holda fitratshunoslik yuzaga kelgan. Abdurauf Fitrat shunday yozgan: "Ey ulug' Turon, arslonlar o'lkasi. Senga na bo'ldi. Dunyoni titratgan yo'lbars bolalaring qani. Nechun tovushlari chiqmaydir?... Nechun chekindilar? Nechun ketdilar? Kurash maydonlarini o'zgalarga nechun qo'ydilar."¹

Fitrat 1909-yilda tojik tilida yozgan "Munozara" asarida ma'rifatparvar adib sifatida Buxoro amirligi idorasiga ma'lum bir islohatlarni o'tkazish g'oyasini ilgari surgan edi. Lekin biz uning bu asari haqida fikr yuritmaymiz. Uning faqatgina ikkita asari: "Bayonoti sayyohi hindi" asariga murojaat etamiz. Ulardan dastlabkisida Buxoroga kelgan xind sayyohi nomidan hikoya qilinadi. Bu asar 1912-yil Istanbulda nashr etilgan. Albatta, buxoroliklar hayoti haqida, tashqaridan kuzatgan sayyoh nomidan Fitrat o'z mulohazalarini bildirgan. Uning fikricha, ruhoniylar vakillarining qoloq va nodonligi, shariat va umuman islom xulqiy me'yorlarini notug'ri talqin qilishi, buxoroliklar hayotining barcha sohalariga ta'sir ko'rsatadi va buni o'z asarlarida ko'rsatib berishga harakat qildi. Ma'lumki, Buxoro butun jahonga buyuk ilm kishilari vatani, mashhur olimlar, shoirlar, tabiblarni etkazib bergan maskan sifatida mashhur bo'lgan. Biroq Buxoro va umuman, Turkiston «ilmlarning yorqin yulduzi, insoniyat kitobining nurafshon sahifasi edi, uni nodonlik botqog'iga botirdilar». Va u bunda Qur'onni o'z xohishicha talqin etuvchi Buxoro ruhoniylarini ayblaydi. Fitrat keltirgan bir qator misollar afsunlarga asoslangan tibbiyot ahvoli, xizmatga maosh to'lash tizimi bo'lmagan, va hamma narsa aholidan nohaq yig'imlar asosiga tayangan davlat boshqaruvi, adolat - da'vogar chuntagidan pul bilan o'lchanadigan sud ishlari matnni tushunmay o'qish va yodlash bilan belgilangan ta'lim, bu sohada kamchiliklar va boshqa soha vakillari bilan uchrashuvlari qiziqarli hikoya tarzida beriladi.

Buyuk o'zbek tilshunosi Fitrat 1923-1930-yillarda maktablarda o'qitilgan "Sarf" nomli o'zbek tilining birinchi grammatikasida shunday yozgan edi:

¹ "O'zbekiston adabiyoti va sa'nati" 1992 yil 5 iyun

“O‘zbek tili ham umumiy turk tilining bir tarmog‘idir. Umumiy turk tilida bo‘lgan 9 ta unli o‘zbek tilida ham mavjuddur”. Fitrat bu 9 ta unli tovushni shunday ko‘rsatgan edi: Aa, Ää, Ee, Ii, Iı, Oo, Öö Uu, Üü (9 ta harf). Ya’ni yo‘g‘on o (o‘) yonida ingichka “ö”, yo‘gon “u” yonida ingichka “ü”, yo‘gon “ı” yonida ingichka “i” tovushlari uchun harflar kerak, deb.¹

Fitrat fikricha o‘zbek tilida kuchli “singarmonizm” (tovushlarning bir-birilariga uyg‘unligi) borlig‘ini ham alohida ta’kidlab o‘tgan edi u asarining “Fonetika” bobida. Shu misollarni bergan: Ingichka “kelmäk” va yo‘g‘on “barmaq”. Shu sababdan “kelmoq” deb yozish xatoli, “kelmäk” yozish kerak deb yozgan edi . Fitrat taqdim etgan quydagi 33 harfli o‘zbek lotin alifbosi ma’qullansa, bu alifbo bugungi kunda Turkmaniston, Ozarbayjon va Turkiyada ishlatilayotgan lotin alifbolariga ham yaqin bo‘ladi, hamma turkiy xalqlar bir-birilarining asarlarini va matbuotini o‘qiy olar edilar.

Unli harflar: Aa, Ää, Ee, Ii, Iı, Oo, Öö Uu, Üü (9 ta harf)

Undoshlar: Bb, Cc, Çç, Dd, Ff, G g, Ğğ, Hh, Xx, Jj, Kk, Qq, Ll, Mm, Nn, Dđ, Pp, Rr, Ss, Shh, Tt, Vv, Yy, Zz (24 harf). [24 + 9 = 33 ta harf]

Hozirgi jamiyatimizda alifbo, harflar masalasi dolzarb bo‘lib turgan vaqtlarda bu fikrlarning ahamiyati katta.

Fitrat 1909-yil “ Jamiyati xayriya” ning ko‘magida Istanbulga o‘qishga borgan. Yangiliklar bilan tanishgan, hamma joydagi ahvollardan xabar topgan. Ya’ni o‘zi yashab turgan hududning ahvolini tashqaridan ko‘rgan , yangiliklar kiritish zarurligini anglab yetgan. Vatanga qaytgach “ Yosh buxoroliklar” partiyasini tashkil qiladilar va firqa qo‘mitasiga kotib etib tayinlanadi.U so‘l jadidchilarga boshchilik qiladi. 1917-yil 7-aprelda namoyish o‘tkazmoqchi bo‘ladilar, ammo amir tomonidan ishtirokchilar o‘qqa tutilgach , Fitrat o‘z faoliyatini Samarqandda davom ettiradi. Samarqandda Behbudiy tashkil etgan “Hurriyat” gazetasida muharrirlik qilgan.² Gazeta sahifalarida 30 dan ortiq Fitratning she’r va maqolalari e’lon qilindi. Gazeta yopib qo‘yilgach “Chig‘atoy gurungi” tashkilotini tuzishga kirishdi. Fitratning o‘zi bu tashkilot faoliyati

¹ Abdurauf Fitrat, Sarf (1930), “Yo‘g‘onlik-ingichkalik”, 5-b

² Hamidulla Boltaboyev - Abdurauf Fitrat “Yoshlar nashriyot uyi” Toshkent- 2022 7-bet

haqida shunday ma'lumot beradi: "Turk tillarini, turk adabiyotini birlashtirish shiori ostida ish ko'rildi. Maktablarda usmonli tili, usmonli adabiyoti ona tili darslari o'rnida qabul qilindi. Mana shu harakatga qarshi... "Chig'atoy gurungi" tashkil qilindi". Bunday so'zlardan seziladiki, "Chig'atoy gurungi" "panturkizm" (umumturkchilik) g'oyalarini emas, balki o'zbek tili, adabiyoti, tarixi va san'ati masalalariga ko'proq e'tibor bergan. Tashkilotning asosiy maqsadlaridan biri arab imlosini isloh qilib, o'zbek tilining tovush xususiyatlariga mos keladigan yangi yozuv tizimi yaratish edi. Tashkilotning bu maqsadi ayni o'sha yillarda emas, bir necha yil o'tgach, 1921-yilgi Til va imlo qurultoyida amalga oshirildi. "Chig'atoy gurungi" til va imlo masalalaridan tashqari, bevosita adabiyot bilan chuqur mashg'ul bo'lgan ilmiy-badiiy jamiyat ham sanaladi. Fitrat Turkiston Xalq dorilfununida, Buxoro jumhuriyatida ishladi. 1921- yil 23-sentabrda Fitrat tahriridan chiqqan "Buxoro xalq sho'rolar jumhuriyati Konstitutsiyasi" qabul qilindi. Davlat lavozimidan bo'shagach, ijod bilan mashg'ul bo'ldi. Fitratning poetik merosida "Sharq" deb nomlangan kichik doston salmoqli mavqega ega. Unda shoir o'tli Sharqning "dardli, og'ir yaralarini yorib" ko'rsatadi:

*Biroq, bu kun ezilar kim bu o'lka,
Har tomondan talanmishdir yo'lsizcha.*

4-oktabr Turkiston milliy ozodlik harakati faollari ommaviy qirg'in qilingan sana edi va bu kunda millatni uyg'otishga harakat qilayotgan fidokor bobolarimiz hali o'ldirilishi haqida buyruq chiqmasdan oldin otib tashlandi. 1938-yilning shu kunida Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, yana faoliyati aksariyat jamoatchilikka noma'lum qolayotgan yuzdan oshiq o'zbek ziyolilari o'z vatanining poytaxti Toshkentda kommunistlar rejimi rahbari Stalin tasdiqlagan hujjatga muvofiq otib tashlangan edi. Stalin qatag'oni nafaqat qirg'in, balki jadidlar timsolidagi Turkiston ozodligi ruhiyatini cho'ktirishga, yo'qotishga ham qaratilgan edi. Ammo bu ruhiyat sharpasi Fitrat, Cho'lpon adabiyoti taqiq ostida bo'lgan sovet zamonlarida ham Turkiston uzra kezib yurdi. Jadidchilar taraqqiyot uchun kurashish, turkiy

tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o'rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan. O'tgan asrning 80-90-yillariga kelib O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashgan yangi o'zbek ziyolilari avlodini yuzaga chiqardi, ularga ruhiy dalda, ma'naviy kuch berdi.

Abdurauf Fitrat va boshqa jadidlar ilgari surgan g'oyalar hozir ham o'z ahamiyatni yo'qotgani yo'q. Abdurauf Fitrat, Munavvarqori va boshqa millat uchun jonkuyar jadidlar maktablar ochar, ularda o'zlari dars berar, o'quv qo'llanmalar yozar, nashr etar va bu yo'lda jonbozlik ko'rsatar edilar. Bu yo'lda hatto o'z mablag'larini ayamaganlar. Bunday saxovatpeshalik, savobtalablik, kabi ezgu ishlar bizning hozirgi mustaqil rivojlanishimiz uchun ham nihoyatda zarur. Biz erkin fuqarolik jamiyati qurishni orzu qilmoqdamiz va shunga intilmoqdamiz. Bu ulug'vor vazifalarni hal etish haqida birinchi prezidentimiz Islom Karimov "Turkiston" gazetasi muxbirining savoliga javoblarida ya'ni kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz" da, o'z aksini topgan. "Bugun jamiyatimiz oldida turgan bu ulug'vor va murakkab vazifalarni xal qilish eng avvalo ta'lim - tarbiya, marifat masalasiga borib taqaladi. Bu masalaga keng jamoatchilik diqqatini jalb etish kerak. Bugungi kunda Turkiy xalqlar tarixi va kelajagini bog'lash maqsadi izchil davom ettirilmogda. Davlat islohatlarining bir qismi sifatida A.Fitrat yaratgan alifbo va uni bugungi kunga moslashtirish yaxshi ahamiyat kasb etgan bo'lardi. Zero u yaratgan alibo Turkiya, Ozarbayjon, O'zbekiston, Qirg'izton, Qozog'iston va Turkmaniston davlatlari kitob, gazetalarini bir xil qilgan bo'lardi. Lekin bu mustaqil respublikalarning ham milliy o'zligini ahamiyatga olish darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Rahbariy adabiyotlar.
Ilmiy adabiyotlar

1. Dilorom Alimova. Jadidchilik fenomeni. Toshkent.: “Akademnashr” 2022 (242-243-244-betlar)
2. Hamidulla Boltaboyev. Fitrat va Jadidchilik. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent 2007
3. Hamidullo Boltaboyev. Abdurauf Fitrat. –Toshkent.: “Yoshlar nashriyot uyi” 2022 yil
4. Jadid ma’rifatparvarlik harakatining g‘oyaviy asoslari “Toshkent islom universiteti” nashriyot- matbaa birlashmasi , Toshkent 2016
5. Jadidchilik: islohat,yangilanish,mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash (Turkiston va Buxoro jadidchiligi tarixiga yangi chizgilar) Toshkent “Universitet” 1999
6. Rustam Sharipov. Turkiston jadidchilik harakati tarixidan. Toshkent. : “O‘qtuvchi”, 2002
7. Nusratillo Naimov. Buxoro jadidlari. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti Toshkent -2000
8. K. Nomozova Jadidchilik: muammolar,islohat va qarashlar
9. Ulug‘bek Dolimov Turkistonda jadid maktablar Toshkent “Unversitet” 2006
10. Bahrom Irzayev Turkiston jadidlarining “Ko‘mak” tashkiloti “Toshkent islom universiteti nashriyot- matbaa birlashmasi Toshkent- 2016
11. Ergashev Karimjon Miryomidinovich. Jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy zaminlari,ularda ilgari surilgan g‘oyalar” Bitiruv malakaviy ish . Andijon – 2013
12. Fitrat A. Tanlangan asarlar 1-jild – Toshkent.: “Ma’naviyat”, 2000 yil
13. Islomova Gulmiraning “Turkiston jadidchilik harakati va ularning islohatchilik foaliyat” . Andijon - 2015
14. Abdurauf Fitrat, Sarf (1930), “Yo‘g‘onlik-ingichkalik”, 5-b
15. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Jadidchilik>